

## **“O‘ZBEKKO‘MIR” AJ: 2023-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT**

Prezident Shavkat Mirziyoev 2023-yilning 11-may kuni energiya ta’minoti masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda O‘zbekistonda ko‘mir qazib olishni ko‘paytirish bo‘yicha vazifalar qo‘ygan, 2023 yilda ko‘mirga bo‘lgan talab 1,5 baravarga oshishi, shu boisdan Konchilik va geologiya vazirligiga 2023-yilda ko‘mir qazib olishni 5,3 million tonnadan 6,5 million tonnagacha oshirishni ta’minlash topshirilgan edi.

Ko‘mirga talabning o‘sishi respublikamizdagi ayrim issiqxonalar, sement va g‘isht zavodlari, bolalar bog‘chalari, mакtablar hamda shifoxonalarning issiqlik ta’minotini ko‘mir yoqilg‘isiga o‘tkazish bilan bog‘liq. 2023-yilda gazni tejash maqsadida 5407 ta ijtimoiy ob’ekt, 1147 ta issiqxona va 250 ta zavod ko‘mirga o‘tkazilishi rejalashtirilgan edi.

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati tomonidan davlatimiz rahbari topshirig‘idan kelib chiqib, 2023 yilgi rejalar qayta ko‘rib chiqildi va 5 800 ming tonna etib belgilandi. Bu 2022 yildagiga nisbatan 1 000 ming tonnaga ko‘pdir.

**ISHLAB CHIQRISH VA REALIZATSIYA BO‘YICHA:** 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kon ustini ochish ishlari 23,1 mln. kub metr yoki prognozga nisbatan 89,4 foiz bajarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 133,0 foizni tashkil qildi.

Ko‘mir qazib chiqarish 5 836,0 ming tonna yoki prognozga nisbatan 100,6 foiz (5 800,0 ming tonna) bajarildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 115,0 foizni tashkil etdi.

Iste’molchilarga 5 396,7 ming tonna ko‘mir yetkazib berildi, prognozga nisbatan 102,6 foiz (5 257,5 ming tonna) bajarildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,5 foizni tashkil etdi.

Ko‘rsatkichlar nomlanishi	O‘lchov birligi	Prognoz	Amalda	+/-	%	O‘sish,%
Ishlab chiqarish amaldagi narxlarda	mlrd.so‘m.	1 470,2	1 469,1	-1,1	99,9	123,2
Ishlab chiqarish taqqoslama narxlarda	mlrd.so‘m.	1 291,6	1 313,6	22,1	101,7	114,8
Ko‘mir qazib olish	ming tonna	5 800,0	5 836,0	36,0	100,6	115,0

Ko‘mir yetkazib berish	ming tonna	5 257,5	5 396,7	139,2	102,6	101,5
Kon ochish yuzasini	mln.m <sup>3</sup>	25,8	23,1	-2,7	89,4	133,0


Ishlab chiqarish amaldagi narxlarda 1 469,1 mlrd.so‘mga bajarilib, rejaga nisbatan 100,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarish taqqoslama narxlarda 1 313,6 mlrd.so‘mni tashkil qilib, rejaga nisbatan 101,7 foizga bajarildi, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8 foiz.

# Ishlab chiqarish amaldagi va taqqoslama narxlarda



## "O'zbekko'mir" AJning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkchilari

■ Прогноз ■ Амалда



**KO'MIR TA'MINOTI BO'YICHA:** 2023/2024-yillar kuz-qish mavsumi uchun respublika aholisi va budget tashkilotlariga jami 1 750,7 ming tonna, shundan aholiga 1 175,9 ming tonna, budget tashkilotlari uchun jami 574,8 ming tonna, shundan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri budget tashkilotlariga 346,2 ming tonna, (DXSh asosida tadbirkorlik sub’ektlariga 228,6 ming tonna) mahalliy ko‘mir yetkazib berilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2024 yilning 1 yanvar holatiga aholiga 1 mln 102,4 ming tonna (95 foiz), budget tashkilotlariga jami 569,4 ming tonna (99 foiz), shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri budget tashkilotlariga 349,2 ming tonna (100 foiz), davlat xususiy sheriklik (DXSh) asosida isitish tizimlarini boshqarish uchun jalb qilingan tadbirkorlik sub’ektlariga 220,2 ming tonna (96 foiz) mahalliy ko‘mir ortib yuborildi.

Ushbu ko‘mir mahsulotini respublika hududlarida tegishlicha tarqatish uchun “O'zbekko'mir” AJ, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ bilan hamkorlikda mahalliy ko‘mir ortib yuborish reja-grafigi qaytadan ishlab chiqildi hamda Bosh prokuratura qoshida tashkil etilgan respublika shtabiga kiritildi.


Aholi va budget tashkilotlariga mo‘ljallangan ko‘mir mahsulotini to‘liq va adolatli tarqatishda shaffoflikni ta’minlash uchun “Ko‘mir ta’midot” MJCh

tomonidan tasarrufdagи barcha ko‘mir omborlari va mavsumiy shahobchalarini kuzatuv kameralari, kompyuter texnikalari hamda yoritish chiroq (projektor)lar o‘rnatish ishlari olib borildi. Jumladan, 104 ta kompyuter (390 mln.so‘m) va 422 ta (114,3 mln.so‘m) yoritish uskunalari xarid qilindi.

**YANGI KON TEXNIKALARI BO‘YICHA.** Bugungi kunda jamiyatdagi mavjud tog‘-kon texnikasining 50 foizidan ortig‘i jismonan eskirgan bo‘lib, texnologik parkdagi avtosamosval, buldozer, yuklagich va avtogreyderlarning foydali ish koeffitsienti o‘rtacha 0,56 ni tashkil etadi.

Respublika bo‘yicha ko‘mirga o‘sib borayotgan talabni qondirish va kon ustki qatlamenti ochish ishlarini jadallashtirish uchun yangi kon texnikalari xarid qilish maqsadida hukumat ko‘magi bilan 77,1 mln dollarlik lizing shartnomalari imzolandi. 2023-yilda ushbu shartnomalar asosida hozirgacha Yaponiyada ishlab chiqarilgan 8 dona yuk ko‘tarish quvvati 90 tonna bo‘lgan “Komatsu” samosvali, 6 ta zanjirli buldozer, 2 dona 6 kubometrli avtoyuklagich, uchta “KamAZ”, uchta “UAZ” rusumli avtomashinalar xarid qilindi.


**ISH HAQI VA MODDIY RAG‘BATLANTIRISHLAR:** 2023-yilda jamiyatda ishchi-xodimlar o‘rtacha soni – 5 573 kishi, ulardan muhandis-texnik xodimlar - 1 051 kishi, ishchilar – 4 522 kishini tashkil qildi.



Jamiyatda 2023-yilda umumiy ish haqi fondi 346 803 519,3 ming so‘mga teng bo‘lib, shundan muhandis-texnik xodimlarga 83 741 802,0 ming so‘m va ishchilarga 263 061 717,3 ming so‘m to‘landi.


O‘rtacha ish haqi 2023-yilda 2022-yildagi 4,6 mln. so‘mdan 5,4 mln. so‘mga (17,4 %) oshdi.

Yil yakunida “O‘zbekko‘mir” AJ da asosiy ko‘rsatkichlar bajarilgani uchun xodimlarga 40 048 238,8 ming so‘m mukofot puli to‘landi. Bayram sanalarida to‘langan rag‘batlantirish pullari 19 285 350,0 ming so‘mni, bir martalik to‘lanadigan mukofot puli 2 220 582,9 ming so‘mni tashkil qildi.



Jumladan, 8-mart – Xotin-qizlar bayrami munosabati bilan – 615 000,0 ming so‘m, Navro‘z bayramiga munosabati bilan 842 550,0 ming so‘m, Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni munosabati bilan 1 071 400,0 ming so‘m, O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik bayrami munosabati bilan 5 311 400,0 ming so‘m, 2023 yil yakuni bo‘yicha ko‘mir qazib olish rejasini oshig‘i bilan bajarganlik uchun 11 445 000,0 ming so‘m rag‘batlantirish puli to‘landi.

## Bayram uchun mukofot puli



**KADRLAR MASALALARI BO‘YICHA:** Ko‘mir sanoati korxonalari uchun kadrlar tayyorlash Toshkent Davlat texnika universiteti, O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent Davlat transport universiteti, Jizzax politexnika instituti, Namangan muhandislik-qurilish instituti, Farg‘ona politexnika instituti, Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan amalga oshirib kelinadi.

2024-yilda Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, Farg‘ona politexnika instituti, Angren shahar 1- va 2-sonli kasb-hunar maktablari bilan talabalarning amaliyot o‘tashlari bo‘yicha shartnomalar imzolangan.

Hisobot yilida jamiyatda 857 nafar xodimning malakasi oshirildi.

Ishchi-xodimlarni lavozimdan lavozimga (boshqa ishga) o‘tkazish va rotatsiya qilish, “O‘zbekko‘mir” AJning 2023 yil 31-avgustdagи 349-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizomga asosan, yo‘lga qo‘yilgan.

Ishga qabul qilish va boshqa lavozimga o‘tkazish bo‘yicha doimiy komissiya tomonidan shaffoflik, xolislik va oshkorlik asosida amalga oshirish maqsadida fuqarolar murojaatlari “O‘zbekko‘mir” AJning internetdagи rasmiy veb-sayti ([www.uzbekcoal.uz](http://www.uzbekcoal.uz)) orqali onlayn qabul qilish yo‘lga qo‘yildi.

Jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalariga yil davomida 330 ta bo‘sh o‘rinlarga 62 ta tanlov o‘tkazildi. Jumladan, 4-chorak davomida 115 ta bo‘sh ish o‘rinlariga 20 ta tanlov tashkil etilib, ushbu tanlovlardan bo‘yicha 2563 nafar nomzod hujjat topshirdi, ushbu nomzodlarning 1732 nafari malaka talablariga mos kelmaganligi sababli, 716 nafari esa test sinovlaridan o‘ta olmaganligi hamda imtihonlarga kelmaganligi tufayli rad etildi.

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA:**

“O‘zbekko‘mir” AJda 2021-yil 25-oktabrda “O‘zbekko‘mir” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizim Nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 475-sonli buyrug‘i tasdiqlangan bo‘lib, ushbu buyruq asosida chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standarti” doirasida belgilangan vazifalar amalgalash oshirildi.

Hisobot davrida 5 marta bayonot berilib, 13 ta targ‘ibot, 8 ta profilaktik tadbir va davra suhbatlari o‘tkazilgan. Muddati o‘tgan yoki bajarilmagan tadbirlar mavjud emas.

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining Komplayens va korrupsiyaga qarshi xizmati tomonidan yil davomida xodimlar va ishchilar o‘rtasida mazkur illatga qarshi turish maqsadida Jamiyat me’yoriy hujjatlar hamda korrupsiyaga qarshi qonunni yoritib beruvchi 5 ta ko‘rgazmali o‘quv materiallar tayyorlandi. Tarkibiy tuzilmalarda mas’ullar tomonidan korrupsiyaviy holatlar, uning huquqiy oqibatlari, o‘zaro sovg‘alar berilishi aks ettirilgan bannerlar o‘rnatalib, illatga qarshi siyosat mazmuni bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha korxona xodimlari faolligini oshirish maqsadida “O‘zbekko‘mir” AJ ijtimoiy tarmoqlarida 2023-yil davomida qator so‘rovnomalar o‘tkazilib, natijalari e’lon qilindi.

“O‘zbekko‘mir” AJning 2023-yil 14-noyabrdagi №72-sonli buyrug‘i bilan tashkil etilgan ishchi guruh 2023-yil 16-noyabrdan boshlab “Ko‘mir ta’milot” MChJning viloyat filiallari kesimida profilaktik tadbirlar o‘tkazildi.

O‘rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tarkibiy bo‘limlarning faoliyatini tartibga solib turuvchi me’yoriy hujjatlarni talab darajasiga yetkazish, lavozim yo‘riqnomalarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

“O‘zbekko‘mir” AJga ishga qabul qilinayotgan har bir xodim bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlar, jumladan, pora olish, pora berish va pora olish va pora berishda vositachilik qilishga javobgarlik mavjudligi to‘g‘risida bandlar qo‘sildi.

Xodimlarga beriladigan ustamalar, ishga qabul qilishda ochiq va shaffof tanlov o‘tkazilishi yuzasidan filiallarda tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda 1543 nafar kontragentlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilgan bo‘lib, ushbu xodimlarning barchasi belgilangan tartibda o‘rganish va tekshiruvlardan o‘tkazilgan.

Jumladan, “O‘zbekko‘mir” AJning 2023 yil 14-noyabrdagi №72-sonli buyrug‘i bilan tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan 2023-yil 16-noyabrdan boshlab “Ko‘mir ta’milot” MChJning viloyat filiallari kesimida o‘rganishlar davomida Namangan viloyatida kadrlarga oid masalalarda korrupsiyaga qarshi

kurashish tizimining joriy etilishi – yangi ishga qabul qilinish va rotatsiya jarayonlarida ochiq tanlov asosida amalga oshirish tizimi mavjud emasligi aniqlandi va holat yuzasidan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkil etish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida filial xodimlari orasidan alohida mas’ul xodim (yuriskonsult, kadrlar bo‘limiga) ushbu soha bo‘yicha vazifalar belgilash bo‘yicha tavsiyalar berildi.

2023-yil davomida aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish bo‘yicha 1 ta xizmat tekshiruvlari o‘tkazildi.

Korxonada aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlar natijasida 1 nafar xodimga ta’sir choralar qo‘llanildi.

“O‘zbekko‘mir” AJda 2023-yil davomida xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan 44 ta, xususan, profilaktik tadbirlar, seminarlar, so‘rovnomalar, uchrashuvlar o‘tkazildi. Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi turish, illatning payini qirqish faqat tegishli organlarning emas, barchaning ishi ekanligi yuzasidan targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

Jamiyat va uning tarkibiy filiallarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo‘yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan vazifalar belgilab olingan va amalga oshirib kelinmoqda.

**JISMONIY VA YURIDIK ShAXSLARNING MUROJAATLARINI KO‘RIB CHIQISH.** 2023-yil davomida “O‘zbekko‘mir” AJga jami 400 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning shundan 27 tasi (6,7%) yuridik shaxslarga, 373 tasi (93,3%) jismoniy shaxslarga to‘g‘ri keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Ishonch telefoni orqali 335 ta murojaat kelib tushgan, shundan, 92 tasi (23%) qanoatlantirilgan, 98 tasiga (24,5%) tushuntirish berilgan, 16 tasi (4%) rad etilgan.

Jumladan, ish haqining o‘z vaqtida berilishini so‘rab 25 ta, mehnat munosabatlari masalasida 66 ta, boshqa turli masalalar bo‘yicha 42 ta, sifatli ko‘mir mahsuloti yetkazib berish bo‘yicha 105 ta, moddiy yordam berilishini so‘rab 20 ta, rahbarlar harakati ustidan norozi bo‘lib 77 nafar murojaat kelib tushgan va atroficha ko‘rib chiqilgan.

Jamiyat bosh direktori ko‘rsatmasi asosida tashkil etilgan ijro apparati mas’ul xodimlari hisobidan tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan tarkibga kiruvchi filiallarda 13 marta sayyor qabullar tashkillashtirildi va xodimlarni og‘zaki murojaatlari va savollari tinglandi tegishli choralar belgilandi.

Hal bo‘lmayotgan muammolar bo‘yicha “O‘zbekko‘mir” AJ “Ishonch” telefoniga 30 ta murojaat kelib tushdi va ularning deyarli barchasi o‘z yechimini topdi.

“O‘zbekko‘mir” AJ matbuot kotibi bilan birgalikda jamiyat rasmiy telegram-botiga kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish mobaynida aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha, ko‘pchilikka namuna bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar “O‘zbekko‘mir” AJ telegramm kanalida va “O‘zbekko‘mir” sohaviy gazetasida maqola ko‘rinishida yoritib borildi.

Tahlillarga ko‘ra, 2023-yil davomida mehnat munosabatlari bo‘yicha murojaatlar soni oshdi. Sababi ish so‘rab murojaat qilayotgan aholi soni ortib bormoqda, fuqarolarni aksariyat qismi qo‘shni davlatlarda ishlab kelgan, bugungi kundagi sodir bo‘layotgan noxush voqealar tufayli chet elga ishga borish kamaygan. Murojaat qilayotganlarning asosiy qismi shahrimizning yirik korxonalarida ishlash ishtiyoyqida, ularni ishga joylashtirish uchun vakant joylar yetishmayapti, shunga qaramay aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan qismini ishga joylashtirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan.

**AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYFLARINI RIVOJ-LANTIRISH BO‘YICHA:** “O‘zbekko‘mir” AJda 466 komplekt kompyuter texnikasi qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda jamiyat ijro apparati (shu jumladan Toshkent shahridagi vakolatxona) va barcha tarkibiy tuzilmalarda mahalliy kompyuter tarmoqlari (LAN) ishlaydi. Jamiyat ma’lumotlar uzatish korporativ tarmog‘iga integratsiyalangan.

“O‘zbektelekom” AK filiali 100 Mbit/s gacha tezlikda tashqi internet tarmog‘iga ulanish imkonini berdi. Ulanish punktlari soni – 8 ta. “O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati tarkibiy tuzilmalardagi 322 nafar internet foydalanuvchisi bor. Ularning internetga kirishi ta’minlangan, bundan tashqari ular bank-mijoz elektron to‘lov tizimidan foydalanadilar.

Aksiyadorlik jamiyati uchun korporativ pochta yaratish maqsadida coal.uz domeni tashkil etildi.

Mavjud ofis boshqaruv tizimini boshqarishning yangi vositalari va usullaridan foydalangan holda takomillashtirish, axborot bilan ta’minalash va qarorlar qabul qilish jarayonlarini integratsiya va avtomatlashtirish, hujjatlarni elektron shaklda qayd etish, ularni tizimlashtirish va bajarilishini nazorat qilishning yagona tizimini yaratish maqsadida elektron hujjat boshqaruv tizimi (SED) 200 foydalanuvchi uchun PEGAS o‘rnatildi.

“IJRO” idoralararo elektron hujjat aylanishi tizimidan 6 ta foydalanuvchi ham ochiq va yopiq ERI kalitidan foydalangan holda axborotni kriptografik himoya qilish (shifrlash) imkoniyatidan foydalanadi.

Uchinchi tomon tashkilotlari bilan hujjat aylanishini tashkil qilish uchun E-XAT dasturidan foydalilanildi.

SCADA darajadagi tizimlar bilan integratsiyalashgan “Angren konida ishini markazlashtirilgan dispetcherlik nazoratining avtomatlashdirilgan axborot tizimi” MES darajasi tizimi ishlamoqda.

ERP tizimining birinchi bosqichi “Moliyaviy hisob va hisobotlarni, xodimlarni boshqarish, operativ va ishlab chiqarish-texnologik faoliyatni kompyuterlashtirishning kompleks integratsiyalashgan axborot tizimi” joriy etildi.

Shuningdek, “Korxonani boshqarish tizimi (ERP) modullarini joriy etish orqali funsionallikni kengaytirish” loyihasining ikkinchi bosqichi uchun texnik topshiriq ishlab chiqildi. Korxonani raqamli o‘zgartirish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish bo‘yicha texnik shartlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Ayni kunlarda aksiyadorlik jamiyatni mahsulotlarini sotish sohasidagi faoliyatni onlayn to‘lovni amalga oshirish imkoniyati bilan boshqarish axborot tizimini modernizatsiya qilish doirasida ko‘mir mahsulotlarini sotish bo‘yicha interaktiv xizmatlar portalini yaratish” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Jamiyatning internetdagi rasmiy veb-saytida davlat axborot resurslarida ro‘yxatdan o‘tgan xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyatiga qarashli 24 ta ob’ektga 150 dan ortiq videokuzatuv kameralari o‘rnatildi.

Axborot xavfsizligi ta’minalash uchun litsenziyalangan operatsion va virusga qarshi dasturlar xarid qilish, ilgari joriy qilingan axborot tizimlari uchun texnik yordam tashkil etish, ATS-4, ATS-2 server xonalari uchun zaxira quvvat manbai yaratish, AKT sohasini malakali mutaxassislar bilan yetarli darajada ta’minalash va yangi axborot tizimlari va texnologiyalarini joriy etish samaradorligini yanada oshirish kun tartibida turibdi.

**OCHIQLIKNI TA’MINLASH BO‘YICHA:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minalash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son farmoniga muvofiq jamiyat faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta’minalash borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

“O‘zbekko‘mir” AJning 2022-yil va 2023 yilning I chorak ish yakunlari hamda gal dagi ustuvor vazifalar mavzusiga bag‘ishlab 2023 yil 17-fevral kuni AOKA (<https://uza.uz/uz/posts/otgan-yil-2021-yildagiga-nisbatan-200-ming-tonna-kop-komir-qazib-olingan-455372>)da, 27-iyul kuni O‘zbekiston Milliy matbuot markazi (<https://uzbekcoal.uz/ru/news/ozbekkomir-aj-2022-yil-yakunlari>) da matbuot anjumanlari o‘tkazildi va OAVlarda keng yoritildi.

Shuningdek, “Ko‘mir ta’minot” MChJning Surxondaryo ([https://uza.uz/uz/posts/kuz-qish-mavsumi-uchun-mahalliy-komir-bilan-taminlash-tadbirlari-surxondaryoda-qanday-tashkil-etilmoqda\\_495152](https://uza.uz/uz/posts/kuz-qish-mavsumi-uchun-mahalliy-komir-bilan-taminlash-tadbirlari-surxondaryoda-qanday-tashkil-etilmoqda_495152)) va Andijon viloyatlari filiallariga ([https://uza.uz/uz/posts/andizhonda-komir-taminotida-muammo-bolmaydi\\_551309?q=%2Fposts%2Fandizhonda-komir-taminotida-muammo-bolmaydi\\_551309](https://uza.uz/uz/posts/andizhonda-komir-taminotida-muammo-bolmaydi_551309?q=%2Fposts%2Fandizhonda-komir-taminotida-muammo-bolmaydi_551309)) press-tur tashkil etilib, ushbu hududlar misolida aholi iste’molchilarini mahalliy ko‘mir bilan ta’minalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko‘rsatildi va tafsilotlari OAVlar chop etildi.

Jamiyat matbuot kotibi tomonidan jamiyatda oylik, choraklik va yillik faoliyat natijalari haqida axborot resurslarida muntazam ravishda bayonotlar va axborotlar berib borildi ([https://t.me/Nemat\\_Dushayev/1892](https://t.me/Nemat_Dushayev/1892), <https://t.me/c/1861656587/586>, [https://t.me/Nemat\\_Dushayev/2396](https://t.me/Nemat_Dushayev/2396), <https://t.me/uzbekcoaluz/11963>).

Hisobot yilida korxona faoliyatini targ‘ib qilish bo‘yicha O‘zbekiston milliy axborot agentligi – O‘zA, O‘zbekiston MTRK hamda respublikamizning yetakchi gazetalari – “Yangi O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka”, “Darakchi” gazetalari, shuningdek xorijiy OAV bilan bilan aloqalar mustahkamlanib, maqolalar, ko‘rsatuv va eshittirishlar e’lon qilindi. Jumladan, O‘zbekiston milliy axborot agentligi – O‘zA tomonidan jamiyat matbuot kotibi Ne’mat Dushaev bilan 2023-yilning 23- yanvarida “Qora oltin zaxiramiz qancha yilga yetadi?” (<https://uza.uz/posts/449052>), 18-sentabr kuni “Bu yil kuz-qish mavsumida aholiga qancha ko‘mir yetkazib beriladi” ([https://uza.uz/posts/bu-yil-kuz-qish-mavsumida-aholiga-qancha-komir-etkazib-beriladi-mutaxassis-bilan-suhbat\\_521096](https://uza.uz/posts/bu-yil-kuz-qish-mavsumida-aholiga-qancha-komir-etkazib-beriladi-mutaxassis-bilan-suhbat_521096)), “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 24-oktabrdagi sonida “Rejalar katta: ko‘mir yetarlimi?” ([https://t.me/gazetalar\\_sharhi/24853](https://t.me/gazetalar_sharhi/24853)), “Pravda Vostoka” gazetasining 2023-yil 1-noyabrdagi sonida “Ko‘mir mahsulotining yangi tariflari” ([https://t.me/gazetalar\\_sharhi/25004](https://t.me/gazetalar_sharhi/25004)), “Darakchi” gazetasining 4-dekabr sonida matbuot kotibi Ne’mat Dushaev bilan “Ko‘mir ta’mnotinidagi soxta ma’lumotlar” sarlavhani suhbat-maqola (<https://t.me/uzbekcoaluz/11969>), O‘zbekiston radiosida 8-noyabr kuni “Shu kunning mavzuida jonli eshittirishda matbuot kotibi bilan ko‘mir ta’mnotiniga oid suhbat-muloqot (<https://t.me/uzbekcoaluz/11605>) e’lon qilindi.

O‘zbekiston MTRK kanallari orqali jamiyat faoliyatiga oid qator ko‘rsatuvalar efirga uzatildi (<https://t.me/uzbekcoaluz/9566>, <https://t.me/uzbekcoaluz/9758>, <https://t.me/uzbekcoaluz/10033>, <https://t.me/uzbekcoaluz/10041>, <https://t.me/uzbekcoaluz/10146>, <https://t.me/uzbekcoaluz/10998>, <https://t.me/uzbekcoaluz/11410> va hokazo).

Rossiya Federatsiyasida chop etiladigan kon-metallurgiya sanoati sohasiga ixtisoslashgan “Globus” jurnalining 2023-yil may soni 88-90- sahifalarida “O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyatni bosh direktori V.V.Kuznesovning “Uzbekugol”: na peredovoy razvitiya otrasli” sarlavhani maqolasi

(<https://www.vnedra.ru/wp-content/uploads/2023/05/globus76.pdf>), shu jurnalining avgust oyi sonida “Angren ko‘mir koni” filiali direktori A.M. Korchaginning “AO “Uzbekugol”: na peredovoy razvitiya otrsli” sarlavhali maqolasi (<https://www.vnedra.ru/wp-content/uploads/2023/08/globus77.pdf>) e’lon qilindi.

OAV va ijtimoiy tarmoqlarda 2023-yil davomida mahalliy ko‘mir mahsulotining sifati, tarqatilishiga oid tanqidiy chiqishlarga o‘z vaqtida munosabat bildirildi, asossiz tanqidlarga esa raddiya berildi. Xususan, aholiga ko‘mir tarqatish mavsumi boshlangan vaqtida, korxona veb sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, jumladan sentabrda – 5 ta, oktabrda – 5 ta, noyabrda – 3 ta, dekabrda – 2 ta shunday tanqidiy chiqishlarga javoblar e’lon qilindi (<https://t.me/uzbekcoaluz/12325>, <https://t.me/uzbekcoaluz/12324>, <https://t.me/uzbekcoaluz/12283>, <https://t.me/uzbekcoaluz/12071>, [https://t.me/Nemat\\_Dushayev/2471](https://t.me/Nemat_Dushayev/2471), <https://t.me/uzbekcoaluz/11834> va hokazo). Shu bilan birga jamiyat axborot resurslari (telegram-bot) hamda ishonch telefonlari orqali murojaatlar bo‘yicha to‘qqiz holatda Axborot xizmati aralashuvi bilan muammoli masala hal etilib, natijalari Axborot resurslarda tarqatildi.

“O‘zbekko‘mir” AJ ijtimoiy tarmoqlarida 2023-yil davomida turli mavzularda 15 ta ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha korxona xodimlari faolligini oshirish maqsadida o‘tkazilgan “Korrupsiya holatlari duch kelasizmi?” (<https://t.me/uzbekcoaluz/10112>), “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonun va qarorlar hamda korxona lokal hujjatlari bilan tanishmisiz?” (<https://t.me/uzbekcoaluz/10112>), “Korrupsiyaviy holatga duch kelsangiz, bu haqida qaerga va kimga murojaat qilishni bilasizmi?” (<https://t.me/uzbekcoaluz/10114>), “Mehnat jamoangizda korrupsiya holati haqida qanday fikrdasiz?” (<https://t.me/uzbekcoaluz/10111>), ishchi-xodimlarning mehnat qonunchiligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish yuzasidan o‘tkazilgan “Yillik asosiy mehnat ta’tili necha kun?” (<https://t.me/uzbekcoaluz/11070>), “Ish beruvchini ogohlantirgan holda ishdan bo‘shayotgan xodimga qachon hisob-kitob qilinishi kerak?” (<https://t.me/uzbekcoaluz/10966>) degan savollar qo‘yilgan so‘rovnomalar shular jumlasidandir.

“Korrupsiya holatlarga duch kelasizmi?” (<https://t.me/uzbekcoaluz/10113>) degan savolga so‘rovnomada ishtirok etgan 273 respondentning 44 foizi “Ha”, 36 foizi “Yo‘q”, 20 foizi “Kam duch kelaman” deb javob bergan.

“Korrupsiyaviy holatga duch kelsangiz, bu haqida qaerga va kimga murojaat qilishni bilasizmi?” (<https://t.me/uzbekcoaluz/10114>) degan savolga esa so‘rovnomada ishtirok etgan respondentning 44 foizi “Ha”, 11 foizi qisman, 45 foizini “Yo‘q, bilmayman” deb javob bergan va hokazo.

Jamiyat bugungi kunda global internet tarmog‘ida rasmiy veb-sayti (<http://uzbekcoal.uz/>) ishlab turibdi va u kundalik axborotlar va ma’lumotlar bilan yangilab borilmoqda. Ijtimoiy ahamiyatga molik ochiq ma’lumotlar hamda komplaenc nazoratga oid ma’lumotlar menyudagi alohida-alohida bo‘limlarda joylashtirib borilmoqda. Shuningdek, telegram messenjerida, Facebook, Tik-tok, Instagram, Twitter platformalari hamda Yotube kanalidagi maxsus sahifalarida jamiyat hayoti va ko‘mir sanoatiga oid axborotlar muntazam joylashtirib borilmoqda.

2023-yil davomida jamiyatning sohaviy nashri – “O’zbekko’mir” gazetasi ([https://t.me/gazetalar\\_sharhi/23058](https://t.me/gazetalar_sharhi/23058)) har birining adadi 1000 (ming) nusxadan bo‘lgan 22 soni chop etildi va tarqatildi.

Jamiyat tuzilmasida Axborot xizmati tashkil etilgan bo‘lib, uch nafar mutaxassis xodim xodim faoliyat olib bormoqda.